

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

SH.Q.SHOYQULOV

WEB-SAYTLAR YARATISHDA

Joomla! CMS dan foydalanish

**Qarshi
«Qarshi davlat universiteti» nashriyoti
2018**

O‘quv-uslubiy qo‘llanmada Internetda joylashtiriladigan veb-saytlarni yaratishda Joomla! CMS dan foydalanish, uning afzalliklari, xavfsizlik vositalarini nazorat qilish, Web-sayt, Web-sahifa, xosting va domen bilan bog‘liq tushunchalar, Web-sahifalarda ranglar mutanosibligini ta’minlash, Web-serverni tashkil etish, ommaviy Web-serverlarni o‘rnatish va foydalanish usullari, ma’lumotlarni boshqarish tizimlari yordamida interfaol Web-saytlar qurishni avtomatlashtirish, Joomla MBT dan foydalanish, skript tillari, PHP va MySQL yordamida Web-sayt qurish hamda Internetda uchraydigan qiziqarli ma’lumotlar bayon etilgan.

Qo‘llanma barcha Web-sayt yaratishga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Taqrizchilar: **Z. Qurbonov**, Qarshi davlat universiteti

amaliy matematika va informatika kafedrasi katta o’qituvchisi

F. Ishqobilov, Qarshi Muhandislik iqtisodiyot
instituti o’qituvchisi

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma Qarshi Davlat universiteti

Ilmiy kengashining 2018 yil __ yanvardagi

__qarori asosida nashrga tavsiya etilgan

© Qarshi davlat universiteti 2018 yil

Mundarija

Kirish

I bob. Web- sahifalar va ularni yaratish vositalari

I.1 Интернет tarmog‘i haqida boshlang‘ich ma’lumotlar

I.2 PHP: gipermatn protsessori

I.3 MySQL MBBT

I.4 Mazmunni boshqarish tizimlari (MBT)

II bob. Interfaol web- sahifalarni yaratish texnologiyalari

II.1 Web- serverlar

II.2. Mijoz / server tizimlarini qurish prinsiplari

III bob. Mazmunni boshqarish tizimlari yordamida web- sahifalar yaratish

III.1 «Joomla!» MBTni o‘rnatish

III.2 «Joomla!» MBTni sozlash

III.3 «Joomla!» MBT da «Qarshi DU rasmiy veb- sayti» misolida axborot strukturasini yaratish

III.4 «Joomla!» MBTga xizmat kor’satish

III.5 MBTni himoylash metodlarini tahlili

III.6 MBTlarning qiyosiy tahlili

KIRISH

Internet - bu yagona standart asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon global kompyuter tarmogidir. Uning nomi «tarmoklararo» degan ma'noni anglatadi. U mahalliy (lokal) kompyuter tarmoqlarni birlashtiruvchi informatsion tizim bo'lib, o'zining alohida axborot maydoniga ega bo'lgan virtual to'plamdan tashkil topadi.

Internet, unga ulangan tarmokda kiruvchi barcha kompyuterlarning o'zaro ma'lumotlar almashish imkoniyatini yaratib beradi. O'zining kompyuteri orqali internetning xap bir mijizi boshqa shahar yoki mamlakatga axborot uzatishi mumkin. Masalan, Vashingtondagi Kongress kutubxonasi katalogini ko'rib chiqishi, Nyu-Yorkdagi Metropoliten muzeyining oxirgi ko'rgazmasiga qo'yilgan suratlar bilan tanishishi, xalqaro anjumanlarda ishtirok etishi, bank muomalalarini amalga oshirishi va xatto boshkd mamlakatlarda istiqomat kiluvchi tarmok mijozlari bilan shaxmat o'ynashi mumkin.

Internet XX asrning eng buyuk kashfiyotlaridan biri xisoblanadi. Ushbu kashfiyot tufayli butun jahon bo'ylab yoyilib ketgan yuz millionlab kompyuterlarni yagona informatsion muhitga biriktirish imkoniyati tugildi.

Foydalanuvchi nuqtai nazaridan taxlil kiladigan bo'lsak, internet birinchi navbatda tarmok mijozlariga o'zaro ma'lumotlar almashish, virtual muloqot kilish imkonini yaratib beruvchi "informatsion magistral" vazifasini o'taydi, ikkinchidan esa unda mavjud bo'lgan ma'lumotlar bazasi majmuasi dunyo bilimlar omborini tashkil etadi. Bundan tashkari internet bugungi kunda dunyo bozorini o'rganishda, marketing ishlarini tashkil etishda zamonaviy biznesning eng muxim vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Internet o'z-o'zini shakllantiruvchi va boshqaruvchi murakkab tizim bo'lib, asosan uchta tarkibiy qismdan tashkil topgandir:

- *Texnik*
- *Programmaviy*
- *Informatsion*

Internetning texnik tarkibiy qismi har xil turdag'i va tipdag'i kompyuterlar, aloqa kanallari (telefon, sputnik, shisha tolali va boshka turdag'i tarmoq kanallari), hamda tarmoq texnik vositalari majmuidan tashkil topgandir. Internetning ushbu texnik vositalarining barchasi doimiy va vaktinchalik asosda faoliyat ko'rsatishi mumkin. Ulardan ixtiyoriy birining vaqtinchalik ishdan chiqishi Internet tarmog'inining umumiyligi faoliyatiga aslo ta'sir etmaydi.

Internetning programmaviy ta'minoti (tarkibiy kismi) tarmoqka ulangan xilma-xil kompyuterlar va tarmoq vositalarini yagona standart asosida (yagona tilda) muloqot qilish, ma'lumotlarni ixtiyoriy aloqa kanali yordamida uzatish darajasida qayta ishlash, axborotlarni qidirib topish va saqlash, hamda tarmokda informatsion xavfsizlikni ta'minlash kabi muhim vazifalarni amalga oshiruvchi programmalar majmuidan iboratdir.

Internetning informatsion tarkibiy qismi Internet tarmog'ida mavjud bo'lgan turli elektron hujjat, grafik rasm, audio yozuv, video tasvir va hokazo ko'rinishdagi axborotlar majmuasidan tashkil topgandir. Ushbu tarkibiy kismning muhim biri, u butun tarmoq bo'y lab taqsimlanishi mumkin. Masalan, shaxsiy kompyuteringizda o'qiyotgan elektron darsligingizning matni bir manbadan, rasmlari va tovushi ikkinchi manbadan, videotasvir va izohlari esa uchinchchi manbadan yig'ilishi mumkin. Shunday qilib, tarmoqdagi elektron hujjatni o'zaro moslashuvchan "giper-bog'lanishlar" orqali bir necha manbalar majmuasi ko'rinishida tashkil etish mumkin ekan. Natijada millionlab o'zaro borlangan elektron hujjatlar majmuasidan tashkil topgan *informatsion muhit xosil bo'ladi*.

IP va URL adreslar tushunchasi

Bir qarashda internetning texnik tarkibiy qismi bilan informatsion tarkibi o'zaro o'xshashdek tuyuladi. Chunki ikkala holda ham biz "birni ko'plikka" usulda tashkil etilgan ob'ektlar bog'likligiga duch kelamiz. Aslida bunday emas. Texnik nuqtai nazardan internetda mavjud bo'lgan ixtiyoriy kompyuter ko'plab (millionlab) kompyuterlar bilan bog'langan bo'ladi. Bunday bog'lanish "tarmok"(Net) deb ataladi. Informatsion nuqtai nazardan internetda e'lon


qilingan har bir elektron hujjat, tarmoqdagi bir nechta hujjatlar bilan o‘zaro bog’lanishda bo‘lishi mumkin. Bu holdagi informatsion bogliqlik "to‘r" (Web) nomini olgan.

Shunday qilib, "Tarmoq"(Net) - haqida so‘z yuritilganda o‘zaro borlangan kompyuterlar majmuasi tushunilsa, "to‘r" (Web) - haqida so‘z yuritilganda esa yagona informatsion muhitni tashkil etuvchi elektron xujjatlar majmuasi tushuniladi.

Amaliyotda internetning real, fizik boglanishlar orqali tashkil topgan tarmog’idagi kompyuterlar bilan virtual informatsion fazoni tashkil etuvchi elektron hujjatlari har xil adreslar yordamida ifodalaniladi. Internet tarkibiga kirgan har bir kompyuter to‘rt qismdan tashkil topgan o‘z adresiga ega, masalan: 142.26.137.07. Ushbu manzil *IP (Internet Protocol)* - *manzil* deb ataladi. Internetga doimiy ulangan kompyuterlar o‘zgarmas IP-adresga ega bo‘ladi. Agar kompyuter foydalanuvchisi internetga faqat vaqtinchalik ishlash uchun ulanadigan bo‘lsa, u holda ushbu kompyuter vaqtinchalik IP-adresga ega bo‘ladi. Bunday IP-manzil *dinamik IP-manzil* deb ataladi.

Tarmokda mavjud bo‘lgan ixtiyoriy kompyuter IR-adresini bilgan holda, unga har xil ko‘rinishdagi so‘rovlар bilan murojaat qilishi mumkin bo‘ladi. Bu so‘rovlар o‘sha kompyuterda saklanayotgan elektron hujjatlar, ma'lumotlar bazasi, yoki bo‘lmasa undagi biror bir programmani ishlatischga, o‘sha kompyuter tarkibiga kirgan texnik resurslar imkoniyatidan foydalanishga oid bo‘lishi mumkin va hokazo.

Internet informatsion muhitini tashkil etuvchi elektron xujatlarning har biri kompyuterlarning IR-adreslaridan boshqa o‘zlarining takrorlanmas, unikal adreslariga ega. Bu adres *URL (Uniform Resource Locator)* - adres deb ataladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi hukumatining pacmiy axborotlari, Oliy majlis qarorlari haqida ma'lumot 6eruvchi elektron sahifa adresi www.gov.uz.



PHP dasturlash muhiti

Php –vebserverda HTML-sahifalarini ma'lumotlar bazasi bilan birlashtirish uchun yaratilgan dasturlash tili. Hozirgi vaqtida xosting provayderlarning asosiy qismi tomonidan quvvatlanadi. LAMP-veb-saytlarni yaratish uchun standart to‘plam (Linux,Apache,MySQL,PHP) tarkibiga kiradi.

PHP nomi “PHP: Hypertext Preprocessor” so‘zlarining qisqartmasidan iborat. Ilgari“ Personal home page tools” so‘zlarining qisqartmasi hisoblanar edi. Dastlab PHP veb-sahifalarni yaratishda yengillik yaratish uchun Perl ga qo‘sishma sifatida yaratilgan.

Tarmoqda dasturlash sohasida PHP-eng ommalashgan skret tillardan biri hisoblanadi. PHP o‘zining oddiyligi bajarilish tezligi, boy funksionalligi, dastur kodini PHP litsenziyasi asosida tarqatishga ko‘ra ISP, Perl tillari bilan bir qatorda ommaviy hisoblanadi. PHP yadrosining mavjudligi va kengaytirish uchun ulanadigan modullar: ma'lumotlar bazasi soket dinamik grafika, kriptografik kutubxonalar PDF formatli hujjatlar bilan ishlash uchun mo‘ljallangan qo‘sishchalari bilan boshqalaridan farq qiladi. Shuningdek, har bir foydalanuvchi o‘z kengaytmasini yaratib unga ulay olishi mumkin. Yuzdan ortiq kengaytishlari mavjud bo‘lib, standart to‘plamga yaxshi sinovdan o‘tgan bir necha o‘ntasigina kiritilgan xolos. PHP interpretatori veb-serverga bu server uchun maxsus yozilgan modul orqali yoki SGI dastur ko‘rinishida ulanadi. Bundan tashqari , PHP – Unix , GNU/Linux , Mikrosoft Windous ,MacOSX va Amiga OS operatsion sistemalarida administrativ masalalarini yechish uchun qo‘llaniladi, Biroq , bu sohada u ommaviy hisoblanmaydi. Chunki bu sohada Perl, Python ,VB Script dasturlari juda ham ommalashgan,

Hozirgi vaqtida 20 mln dan ortiq veb saytlar , ya’ni internetdagи domellarning 1/5 qismi PHP ishlaydi .

1994 yil Daniyalik dasturchi Pasmus Lerdorf (Rasmus Lerdorf) HTML hujjatlarini shablonlarini qayta ishlovchi, saytga tashrif

buyuruvchilarning sonini Internet sahifasiga chiqarishga imkon beradigan skriptlar to‘plamini Perl/CGI ga yozadi.Lerdorf bu skriptlar to‘plamini Personal Home Page (shaxsiy uy sahifasi) deb ataydi. Shundan so‘ng .bunday skriptlar yozish uchun Perl scriptlar interpretatorining imkoniyatlari yetmay qoldi.va Lerdorf c tilida yangi shablonlar interpretatori PHP/FI (Personal home Page/forms Interpreter)-“SHUS(shakllar yaratuvchisi) dasturini yozdi.PHP/FI hozirgi PHP ning bazaviy imkoniyatlari :perl uslubida o‘zgaruvchilarni e’lon qilish ,shakllarni avtomatik qayta ishslash va HTML- matnga joylashtirish va boshqa ko‘plab imkoniyatlarga ega bo‘lgan yangi tilo‘zining ajdodlaridan sodda chekli sintaksisi bilan farq qiladi.1997 yilda C tilida yozilgan PHP/FI 2.0 chiqarildi. Undan dunyodagi internet domenlarining 1 foizi foydalandi. PHP 3.0 versiyasining ko‘rinishi hozir biz ishlayotgan PHP versiyasi ko‘rinishini oldi.1997 yilda ikki Isroillik dasturchi Endi Gutmans (Andi Gutmans) va Ziv Suraski (Ziv Suraski)-isroil texnologiyalar instituti dasturchilari PHP dasturini boshidan qayta tuzib chiqishdi.ularPHP/FI ni merosxo‘ri deb atashdi.PHP 3.0 ning kuchli tarafdarlaridan biri yadroni kengaytirish imkoniyati mavjudligidir.Kengaytirish imkoniyatlarining mavjudligi PHP ga ko‘plab chetki dasturchilarni jalb qildi. Bu dasturchilar o‘zlarining modullarini yarata boshlashdi. Bu esa PHP ga katta miqdordagi Mb protokollar,ko‘plab APIlar bilan ishslash imkonini berdi. Mana shu narsa PHP ning muvaffaqiyatiga sababchi bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda yangi ob’ektga yo‘naltirilgan dasturlashni quvvatlovchi to‘liq sintaksisning yaratilishu ham katta ahamiyat kasb etdi. Absolyut yangi dasturlash tili yangi nomga ega bo‘ldi,ya’ni oddiygina PHP deb ataldi.1998 yilga kelib 10000 dan ortiq foydalanuvchi PHP dan foydalana boshladi. 100000 dan ortiq veb-sayt bu tildan foydalanib tuzildi. Internet veb-serverlarining 10% iga o‘rnatildi.PHP 3.0 rasmiy ravishda 1998 yil iyunida chiqarildi.1998 yil oxiriga kelib endi va Ziv PHP yadrosini qayta ishslashni boshladi. Bunga sabab murakkab dasturlarning samaradorligini oshirishdan va PHP boshlang‘ich kodini modullilagini oshirishdan iborat edi. Kengaytirishlar PHP 3.0 ga MB bilan ishslash va katta miqdordagi turli API va protokollarni

quvvatlar edi. Biroq ,PHP 3.0 modullarini sifatli quvvatlay olmas edi va ilovalar samarasiz ishlar edi. Zend Engine deb nomlangan yangi modul qo‘yilgan masalalarni osonlik bilan hal eta oladi va 1999 yil o‘rtalariga kelib ommaviy foydalanishga chiqarildi. Bu nom zend technologies asoschilari Ziv va Endi nomlaridan kelib chiqqan. Bu dasturga asoslangan PHP 4.0 2000 yil mayida chiqarildi. Samaradorlikni oshirish maqsadida PHP 4.0sessiyalarni quvvatlash ,chiqarishni buferlashtirish ,foydalanuvchi tomonidan kiritilayotgan axborotni qayta ishlashni xavfsiz usullari va bir nechta yangi til konstruksiyalariga ega edi. PHP 4.0 uchun yangilashlar 2007 yil oxiriga ishlab chiqildi.PHP 4.0 2007 yil 9 avgustdan boshlab foydalansha chiqarildi.PHP 5.0 2004 yil 13 uyulidan ishlab chiqildi. Bu versiyaga zend yadrosi yangilandi va shu sababli intern samaradorligi keskin oshirdi.XML tilini quvvatlash imkoniyati paydo bo‘ldi. Tava da qo‘llaniladigan modelga o‘xshatilgan holda ob’ektga yo‘naltirilgan dasturlash to‘liq qayta ishlab chiqildi. Xususan ,destructor ,ochiq ,yopiq va himoyalangan a’zolar va metodlar ,tugallangan a’zolar va metodlar va interfeyslar va ob’ektlarni klonlashtirish kiritildi. Biroq yangiliklar tilning oldingi versiyalari kodi bilan moslikni ta’minlash maqsadida qilingan edi.hozirgi vaqtda PHP6 dev versiyasi bo‘lishiga qaramasdan 5.xx versiyalari ishonarli va ko‘p ishlatiladigan hisoblanadi. PHP 6 ustuda 2006-yil oktoyabrdan boshlab ishlabmoqda. Unda ko‘plab yangiliklar, masalan, yadrdan doimiy POSIX ifodalarini va uzun superglobal massivlarni chiqarib tashlandi` , .php.ini konfiguratsion faylidan sate_mode,php_magic_quotes va register_globals direktvalari o‘chirildi. Unicod ni quvvatlash vositasi qo‘shildi. Bu versiyani GNU/Linux/BSD uchun dastur kodini va MS Windows uchun kompilyatsiyalangan versiyasini PHP Snapshots rasmiy saytidan toppish mumkin.

PHP o‘zgaruvchilarni e’lon qilishda tipini ko‘rsatmasdan ham ishslash imkonini beruvchi dinamik tiplashtirishga ega dasturlash dasturlash tili

hisoblanadi. Skalyar tiplarnialmashtirish qo'shimcha ishlarni amalga oshirmasdan ham bajarish mumkin bo'ladi.

Massivlar sonli va satrli kalitlar bilan ishlay oladi. Massivlar istalgan tipdagi jumladan, boshqa massivlardan ham tashkil topishi mumkin. PHP keng miqyosda ob'ektlar bilan ishlashga yo'naltirilgan imkoniyatlarini quvvatlaydi. PHP ga sinflar class kalit so'zi bilan boshlanadi. Sinfning metodalari va maydonlar umumiyligi foydalanish uchun (public), himoyalangan (protected) va yashirin (private) bo'lishi mumkin. PHP vorislikni va interfeyslarni quvvatlaydi. Yakuniy, mavhum metod va sinflarni e'lon qilish mumkin. Sinflarda to'plam vorisligi quvvatlanmaydi, biroq sinf bir necha intefeyysi hosil qilish mumkin.

Tilning oldingi versiyalarida yaratilgan kod keyinroq chiqarilgan versiyasida eski versiyadagi konstruklar, metodikalar, funksiyalar ishlatalmaydi. Natijada bir necha yil oldin yaratilgan yangi verasiyada ishlatilmaydi. Shuning uchun unga o'zgartirish kiritiladi.

MySQL MBBT

MySQL dasturiy ta'minoti juda tez ishlaydigan ko'p oqimli, ko'p foydali ishonchli ma'lumotlar bazasi SQL serveri hisoblanadi. MySQL server ko'p ish bajarishga mo'jallangan hamda ommaviy tarqatiladigan dasturiy ta'minotga qo'shish uchun mo'ljallangan.

MySQL qo'sh litsenziyaga ega. Ya'ni foydalanuvchu MySQL dasturiy ta'minotini ommaviy GNU General Public License (GPL) litsenziyali bepul yoki MySQL AB standart tijoriy litsenziyali ko'rinishlaridan biridan foydalanish mumkin.

MySQL kichik va o'rtacha dasturlarda foydalaniladi. LAMP tarkibiga kiradi. Odatda, MySQL local va uzoqlashgan mijozlar murojat qiladigan server sifatida qo'llaniladi. Biroq, distributiv tarkibiga ichki server kutubxonasi kiradi va u MySQLni avtonom dasturiga ulash imkonini beradi.

MySQL MBBT ning moslashuvchanligi quyidagi katta miqdordagi jadval turlari mavjudligi bilan ta'minlanadi. Foydalanuvchilar to'liq matnli qidiruvni amalga oshirishga imkon beradigan MyISAM turidagi jadvallar, alohida yozuvlar sathidagi tranzaksiyaga imkon beradigan InnoDB jadvallarini tanlashi mumkin.

Ochiq arxitektura va GDL –lisenziyasiga egaligi MySQL ma'lumotlar bazasida doimiy ravishda yangi turdag'i jadvallar paydo bo'ladi. 2008 26 fevralda Sun Microsystems kompaniyasi MySQL AB ni \$ 1 mlrd ga sotib oldi.

MySQL msql kompaniyaning xususiy dasturlariga ISAM-quyi sathdagi qism dasturlandan foydalangan jadvallar uchun qo'llash natijasida paydo bo'ldi. Natijada yangi SQL interfeys ishlab chiqilib mSQLdan API-interfeys meros qoldi." MySQL" nomi sistema yaratuvchilardan biri Maykl monti Videnius ning My ismli qizchasi ismidan olingan. MySQL ko'p miqdordagi platformalar uchun yaratilgan: AIX, BSDI, FreeBSD, HP-UX, GNU/Linux, MacDSX,

NetBSD, OpenBSD, OS/r, Warp, CGI IRIX, Solaris, Sun OS, SCD Open Server 2003 va Win Vista, Open VMS uchun MySQL porti mavjud. MySQL AB kompaniyasi erkin ko‘chirib olish uchun MBBT ning dasturiy kodi bilan birgalikda biror bir DC da ishlatishga mo‘ljallangan optimal vakompilyasiya qilingan ko‘rinishini ham rasmiy saytdan ko‘chirib olish imkonini bo‘ladi.

MySQL C, C++, Java, Perl, PHP, Ruby, SmallTalk, Tcl tillari uchun API,NET platformasidan tillar uchun kutubxonalarga ega, hamda MyODBC uchun ODBC-drayveri vositasida ODBC bilan ishlash imkonini beradi.

MySQL 5.0 da MySQL ni tijoriy MBBT bilan bir qatorga qo‘yish imkonini beradigan funksionalligi sezilarli ravishda kengaytiriladi.

MySQL ning bu versiyasi amalda to‘liq SQL standarti bilan ishlash imkonini beradi. MySQL 5.0 da quyidagi yangiliklar paydo bo‘ladi: saqlanuvchi protsedura va funksiyalar; xatolarni qayta ishlovchisi ; kurstorlar: triggerlar; ko‘rinishlar; axborot sxemalari (sistema lug‘ati) .

Mazmunni boshqarish tizimlari

So‘ngi yillarda mazmunni boshqarish tizimlari (MBT) (inglizcha content Management System – CMS deb atash qabul qilingan) keng ommalashdi . Bunga o‘xshash tizimlar yordamida tajribada foydalanuvchi zarur bo‘lganda veb-loyihani asosini osonlik bilan yaratma oladi, veb-integrator esa katta hajmdagi veb-loyihani qisqa muddatlarda yaratish imkoniga ega bo‘ladi. Modul bilan ishlashga mo‘ljallanganlik uning funksionalligini oshiradi. Mazmunni boshqarish tizimlari qo‘llanmagan vaqtarda yangi veb-loyihani yaratishda yo har bir sahifa HTML da yozuv chiqilar edi yoki dasturlash va grafik ko‘rinish bilan birgalikda amalga oshirilar edi. Bunday jarayon ko‘p vaqt talab etar edi, biroq katta chekli miqdordagi funksiyalar tomonidan qiyinchilik bilan amalga oshirilar edi.

Zamonaviy MBTlari doimiy dasturlash zaruratini yo‘qotadi. Oldindan tayyorlab qo‘yilgan va sinovdan o‘tgan minglab shablonlar (qolib) lardan birni

tanlash etarli bo‘ladi. Barcha qoliblar yagona standart asosida qurulganligi sababli tizimga ulashlar birlashtirish ko‘p vaqt olmaydi.

MBT larni yutuqlarini baholash uchun ilgari MBT lari paydo bo‘lgunga qadar veb – resurslar qanday uskunaviy vositalar yordamida yaratilganligini yetarli bo‘ladi.

Veb dasturlash asosining 1990-yillaridan boshlandi. Bu davr veb – tehnologiyalar taraqqiyotiga nisbatan past darajada bo‘lganligi, dinamik veb loyihalar faqat dasturchilar tomonidan yaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Veb – saahifalarda dinamika CGE texnologiyasi yordamida va boshqa murakkab texnologiyalar qo‘llanilganligi sababli, o‘zining xususiy loyihasini yaratayotgan oddiy foydalanuvchi saytni faqat statik ko‘rinishida tuzilishda yarata olar edi va 1990-yillarning o‘rtalaridan paydo bo‘la boshlagan WYSIWYGI muharrirlarida yaratilar edi. Sahifalar yaratilgandan so‘ng ishoratlar bilan bilan birlashtirilar edi va serverda joylashtirilar edi. Ma’lumotlarni yangilab borish va loyihani ishga layoqatli ekanligini tekshirib turish muallif tomonidan amalga oshirilar edi. Masalan, sahifadagi ishoratni o‘zgartirish uchun muallif bu sahifani topib, unga o‘zgartirishlar kiritib yana serverga qaytadan joylashtirar edi. Agar yangi sahifa qo‘sishga zarurat tug‘ilganda butun lohiga mantiqiy va fizik o‘zgartirishlar kiritish masalasi ko‘ndalang turar edi. Sahifalar soni ortishi bilan ularni boshqarish qiyinlashib borar edi. Dinamik sahifalarni o‘zgartirish va kengaytirish bundan ham qiyin edi.

O‘sha davrda barcha bu kabi jarayonlarni avtomatlashtirish tizimlari mavjud emas edi, aniqrog‘i qulay va oson tizimlar yo‘q edi, va ochiq va tijoriy tizimlar o‘rtasida tanlash mavjud emas edi, mavjud kamdan kam tijoriy tizimlarni ham ko‘pchilik borligini bilmas edi. Biroq bu holat unchalik uzoq davom etmadi va statik html – sahifalarida CGI dasturlashga qo‘sishma sifatida tez moslashuvchan ASP (1996), ColdFusion (1995-yil iyun), keyinroq PHP

(1997-yil ikkinchi versiyasi) texnologiyalari paydo bo‘ldi. Yangi texnologiyalar html – sahifa teglari va murakkab bo‘lmagan kodlarni birgalikda joylashtirish imkonini berish bilan birga passiv html – sahifalarni aktiv sahifalarga aylantirar edi. Sahifalarning faolligi esa foydalanuvchilar bilan interfaol aloqadorlikni osonlik bilan tashkil etish imkoniyatini berar edi. Chunki, foydalanuvchi bir sahifaga har safar murojat qilganda yangi ma’lumot olish imkoniga ega bo‘lar edi. Shuning bilan birga aniq bir amallarni avtomatlashtirish uchun mos, fayllarni serverga yuklash yoki yangi sohalarni yaratish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beruvchi faol sahifalar yaratilmoqda. Bunday foydalanilgan sahifalar sekinlik bilan yordamchi to‘plam(paketlarga) to‘planib borildi. Bunday to‘plamlar bir turdag'i masalalarda qo‘llanildi, biroq imkoniyatlari har doim ham etarli bo‘lmaydi va ko‘pgina mijozlar xususiy loyihalariga indivuidal boshqaruv tuzilmalarga buyurtma berishni ma’qul ko‘rishi. Bunday buyurtma tizimlar dastlab xarakterda bo‘lgan ,tizim funksionalligini kengaytirish yoki o‘zgartirishga to‘g‘ri kelganda buyurtmachi dasturchilarga qayta murojat qilishga to‘g‘ri kelgan .Tezda dasturchilarning o‘zлari ham universal tizimlarni yaratishga kirishgan. Shunday qilib ,birinchi – universal tijoriy boshqaruv tizimlari paydo bo‘ldi.

Barcha tillarda gaplashuvchi foydalanuvchilar uchun CMS qisqartmasi qabul qilindi. Keyinroq ochiq boshqaruv tizimlari paydo bo‘ldi. Bu tizimlarning keyingi evolyutsiyasi sohani shunday darajaga olib keldiki, “MBT”so‘z birikmasi unchalik dolzarb bo‘lmay qoldi, zamonaviy tizimlarning funksionalligo sezilarli kengaydi, endi bu tizimlar, mavzular , modullar bilan ishlay oladi va shu bilan birga boshqa elementlarni boshqara oladi. Zamonaviy tizimlarni veb-loyihalarni boshqarish tizimlari (n sinfli) deb atash mumkin.

Hozirgi vaqtida boshqaruv tizimlari nafaqat foydalanuvchi uchun qobiq-menejir, balki veb-dasturchi uchun kuchli vosita hisoblanadi. Bunday tizimlar sabab veb –loyihalarni boshidan boshlab ishlab chiqishga zarurat qolmaydi-tayyorgarlikka ega foydalanuvchi yoki integrator tezlik bilan sarf-harajatlarsiz

professional darajadagi kerakli natijaga erishish uchun mavjud tizimni tanlash , o‘tnatish va sozlash etarli bo‘ladi.

Hozirda mavjud veb-saytlarning qandaydir miqdordagi qismi boshqaruv elementlarisiz yaratilgan. Bular “quruq”saytlar deb ataladi. Mijozlarning ko‘p qismi bunday tizimlarning mavjudligini bilishmaydi,dastur tuzuvchilar esa uni joriy qilishga ko‘p oshiqmayapti. Agar veb-loyiha buyutmachi loyihani to‘g‘rilashi yoki o‘zgartirishga zarurat tug‘ilsa u gipermatn va dastur kodi bilan murrakab amallarni bajarishi yoki loyiha dasturchisiga murojaatqilib,boshqaruv elementi bo‘lishiga qaramasdan o‘zi bajara olmagan muammoni qo‘srimcha haq to‘lash evaziga bajartiradi.’

Shu sabablarga ko‘ra hozirgi vaqtida veb-loyihalarning ko‘pchilik qismi boshqaruv tizimlarisiz yaratilgan bo‘lib ,yaqin vaqlar ichida bunday tizimlarga o‘tkazilishi kutilmoqda.

Endi boshqaruv elementlari qaytarzda turli foydalanuvchilarga taqdim etilishini qarab chiqamiz. Boshqaruv tizimlari foydalanuvchilarga u bilan aloqadorlikda bo‘lgan har bir foydalanuvchini kiritish mumkin. Misol uchun foydalanuvchilar quyidagilar bo‘lishi mumkin.:

-yaratilayotganlar yaratilgan veb-loyihaning bo‘lajak va hozirgi tashrif-buyuruvchilari(mehmonlar,ro‘yhatdan o‘tgan va o‘tmagan foydalanuvchilar;)

-mazmun menejerlari ,moderadorlar,muharrirlar ,administratorlar;

-dasturchilar va jamlovchilar (CMS foydalanuvchilari)

Tashrif buyuruvchilar –bu foydalanuvchilarning eng ko‘p va eng ahamiyatli guruhidir. Ularsiz ixtiyoriy loyiha taraqqiy etmas edi,shuning uchun ham ular e’tiborini qaratish uchun kurash olib borilmoqda. Tashrif buyuruvchi hech qachon texnik tafsilotlarga tegishmaydi-unga yaratilgan loyihaning qanday boshqaruv tizimda yaratilganligining umuman ahamiyati yo‘q,uning uchun axborot va unga ega bo‘lish usuli muhim sanaladi. Tashrif buyuruvchi

boshqaruv tizimini loyihaning ishonchli a'zolari ko'ra oladigan ko'rinishda ko'ra olishmaydi, uning uchun butun tizim-bu matetiallarga ega sahifalar, harakatlantirish element, teskari aloqa formalari, ko'rsatmalar va boshqalardan iborat. Tashrif buyuruvchi –tipik iste'molchi bo'lib, loyi hadagi qiziqarli ma'lumotlar qanchalik osonlik bilan tezroq olishning iloji bo'lsa, u boshqa muqobil loyihalar haqida kamroq o'ylaydi. Shuning uchun qulay va yaxshi sozlangan loyiha yaratishning o'zi etarli bo'lmaydi, shuningdek uning mazmuni –qiziqarli, dolzarb bo'lishi zarur. Shunday qilib ko'plab tashrif buyuruvchilarni jalb qilish mumkin.

Mundarija menejerlari, moderatorlar, muharirlar, adminstratorlar-qo'shimcha huquqlar berilgan ishonchli shaxslar. Bu darajadagi foydalanuvchilarga boshqaruv tizimi kengaytirilgan ko'rinishda taqdim etadi. Tizim interfeysiga qo'shimcha boshqaruv elementlari yoki butun boshqaruv bo'limlari qo'shiladi. Bu bo'limlarda adminstratorlar tez va osonlik bilan emas, yangi foydalanuvchini qo'lga oladi, moderator esa tashrif buyuruvchi tomonidan qoldirilgan xabarlarga tuzatishlar kiritish va administrator ruxsat etgan boshqa amallarni bajarishi mumkin.

Fan sohasini yaxshiroq tushinish uchun sinflashga o'xhash metodika yaratilgan. Sinflash-umumiyl to'plamdan biror kriteriyaga ko'ra bo'laklarga bo'lishdir, yani umumiyl belgilarga ko'ra guruhlarga bo'lishdir. Sinflash boshqaruv tizimi sohasida ham tizimlar o'rtasida aniq cheklovlarini qo'yish uchun talab qiladi.

Bu bosqichda sinflashning ikkita ochiq turi qaraladi:

- “ochiqlik darajasi” ga ko'ra;
- “tizimni yaratuvchisi” ga ko'ra.
 - a) “ochiqlik darajasi” ga ko'ra sinflash

Ko‘pgina foydalanuvchilar OpenOffice, Firefox, Linix va boshqa ko‘pgina nafaqat bepul tarqatiladigan, balki dastur kodi ochiqchasiga tarqatilliyotgan dastur va tizimlarni ishlatib ko‘rish mumkin. Dastur kodining ochiq tarqatilishi esa har bir foydalanuvchi bu dasturda o‘zgartirishlar kiritish va o‘zgargan holda tarqata olishini bildiradi. Biroq ochiq loyihalar-nafaqat dasturiy yechim va hamma litsenziyalarga ega bo‘lish huquqini beradi, balki o‘zaro yordam berish prinsiplariga asoslangan ijtimoiy hodisa hamda g‘oyaviy qiziqishlariga ko‘ra o‘zining qatnashchilarini birlashtiradi.

Bunday ochiq mahsulotlar qanday o‘ziga xos imkoniyatlar yaratadi? Ko‘proq ochiq oydin yutuq va imkoniyatlari quyidagilar:

1. Ochiq mahsulotlarning bosh yutug‘i ularni har doim olish mumkinligidir-ochiq mahsulotni nafaqat erkin olish, balki tezlik bilan yangilash mumkin. Bu mahsulotlarda topilgan xatoliklar tijotiy dasturlardagi kabi navbatdagi versiyasida to‘g‘tilanmaydi. Ochiq mahsulotlar tanlash va amallar ixtiyorilagini taqdim etadi. Shuningdek mavjud yechim buyurtmachi talablarini qanoatlantirmagan holatlarda minimal harakatlar evaziga bir yechimdan ikkinchisiga o‘tishni taqdim etadi.

2. Ochiq mahsulotlar begona kodlarni kiritish orqali, shuningdek, o‘zaro quvvatlash evaziga o‘zi raqobatchilariga nisbatan tez taraqqiy etmoqda. Yangi g‘oyalar va jamoatchilikning quvvatlab turishi evaziga ochiq mahsulotlar nafaqat tijoriy dasturlar bilan raqobatlasha oladi, balki bozorda yetakchi o‘rinni egallaydi. Shunisi e’tiborliki, hozirgi vaqtida tijoriy dastur ishlab chiqarishning ma’lum bir qismi o‘z mahsulotlari tarkibiga ochiq yechimlarni joriy qilishmoqda.

3. Oddiy foydalanuvchilardan tartib dastur tuzuvchigacha ixtiyoriy foydalanuvchi ochiq loyiha qatnashchisi bo‘la oladi. Chunki xalqaro ochiq loyihalarga har doim tarjimonlar, tekshiruv o‘tkazuvchilar va boshqa mutaxassislar kerak bo‘ladi.

4. Dastur tuzuvchilar tashkilot, ochiq yechimni asos sifatida tanlash orqali begona korporativ “qora quti” ostida qurish zaruratidan xalos bo‘ladi. Shuningdek, ochiq mahsulotlardan yangi va qiziqarli g‘oyalarni o‘zlashtirish ta’qiqlanmaydi, balki rag‘batlantiradi. Ochiq loyihalar va mahsulotlar doimo standartlarga yo‘naltiriladi.

5. Ixtiyoriy o‘z sohasining mutaxasisi ochiq dasturlarning dastur kodlarini olish orqali mahsulotlarni tahlil qilishi uning ishonchliligini xavfsizligini mosligi va boshqalarga o‘z xulosalarini krita oladi.

6.Ochiq mahsulotni o‘z talablarimizga ko‘ra qaytadan ko‘rib chiqishimiz mumkin. Bu esa maksimal natijaga erishish imkonini beradi.”ochiqlik darajasi” ga ko‘ra butun mahsulotlar ikki turga bo‘linar ekan. Birinchi gruppaga ochiq mahsulotlar,ikkinci gruppaga –qolgan barcha dasturlar kirar ekan.

Tizim ishlab chiqaruvchilarga ko‘ra sinflash .

Tizim ishlab chiqarishi muallif hamda dastur ishlashini nazorat qilib turuvchi hisoblanadi. Ishlab chiqarish sifatida o‘zining g‘oyaviy liderlariga ega ochiq hamjamiyat hamda mutahassislarni o‘zida jamlagan tijoriy tashkilotlar kiradi. Qulaylik uchun 1-gruppaga hamjamiyat loyihalarini, 2-gruppaga tashkilotlar loyihalarini kiritamiz. Kimning mahsulotlari yaxshiroq ekanligini aniqlash uchun yangi CMSlarning paydo bo‘lishi senariysini qarab chiqamiz.

1-gruppa boshqaruv tizimlaridan boshlaymiz. Jahonda ko‘plab erkin proffisional (yuqori malakali dasturchilar, dizaynerlar va boshqalar) mavjud. Ular mustaqil ravishda buyurtmalar qidirib topadi va vositalarchisiz ishlashadi. Ular o‘z amaliyotida turli yechimlarini qo‘llashga to‘g‘ri keladi. Vaqt o‘tishi bilan ular mavjud yechimlar bir qator kamchiliklarga (cheklangan funksionallik, yopiqlik va boshqalar) ega ekanlini tushuniladi yoki yangi texnologiyalar muhitida noloyiq ekanligini bilgandan so‘ng undan yangi va ko‘p imkoniyatga ega yechimlarni qurishga imkon beradi. o‘ylangan fikrni amalgaloshigandan so‘ng, undanda istiqbolliroq“yechim” dunyoga keladi shundan so‘ng

muallif barcha qilingan ishlarni ommabop qilishga intiladi va bu natijada loyiha ochiladi. Bu narsa yaqin vaqtlar ichida loyihaning davom ettiruvchilari paydo bo‘lishiga olib keladi-hamjamiyat tashkilot bo‘ladi. Hamjamiyatning kuchli quvvatlovi hisobiga bundan keyigi “yechim” rivojlanib boradi. Natijada bir necha yildan so‘ng paydo bo‘lgan to‘liq tayyor bir tekis ishlovchi dasturiy “yechim” tijoriy mahsulotlarni siqib chiqara boshlaydi, yangi loyihaning o‘zi esa hamjamiyat mulkiga aylanadi.

2-gruppa kiruvchi tijoriy sinfi veb studiyalar va yirik jamlovchilar tomonidan yaratiladi.

Ta’kidlash kerakki veb studiyalar turli tipda bo‘ladi. Ikki-uch kishidan iborat jamoa ham, katta tashkilotlar ham veb studiyani tashkil qilishi mumkin. Tijoriy CMS lar 1999-2003 yillar oralig‘ida paydo bo‘lgan. Shu vaqtlardan bo‘shlab dastlabki yillarda xususan boshqaruv tizimlarini yaratish veb studiyalar paydo bo‘ldi. Mazmunni boshqarish tizimi yaratish va quvvatlash sxemasi 1.4.1-rasmda tasvirlangan.

Zamonaviy CMS tizim qo‘shimcha dasturlashtirishga murojat qilmasdan: sahifa mazmunini tahrirlash, grafikni qo‘shish o‘chirish; yangi sahifalarni qo‘shish; sayt strukturasini va boshqa turli meta ma’lumotlarni o‘zgartirish; ro‘yxatdan o‘tkazish formalarini sozlash; so‘rovlari, ovoz berishlari, forumlarini boshqarish; tashrif buyuruvchilar statistikasini chiqarish; foydalanuvchilar o‘rtasida saytni boshqarish huquqlarini taqsimlash imkoniyatini berishi zarur.

“Joomla!” asosiy hususiyatlaridan biri sayt tayyorlashda cheksiz ommaviy imkoniyatlar va moslashuvchanlikda nisbatan boshqaruvning soddaligi hisoblanadi.vv

“Joomla!”ning boshqaruv paneli 1.4.2-rasmda tasvirlangan.

Joomla! MBT keng tarqalgan Mambo CMS uning bir tarmog‘i hisoblanadi.

Veb-serverlar

Veb-server-mijozlarning HTTP-so‘rovlarini qabul qiluvchi server. Odatda mijozlar sifatida veb-brauzerlar qo‘llaniladi va ularga HTTP-javoblar bilan birgalikda HTML-sahifalar,tasvirlar,fayllar,media-oqimlar yoki boshqa ma‘lumotlar uzatiladi. Veb-serverlar veb-saytning asosini tashkil qiladi.

Veb-server deb yuqorida qayd etilgan amallarni ta‘minlovchi dasturiy ta‘minotni ham bu dasturiy ta‘minot ishlayotgan kompyuter ham tushuniladi. Mijozlar veb-serverga yagona resurs ko‘rsatuvchisi-URL-adres bo‘yicha kerakli veb-sahifaga yoki serverda joylashgan boshqa resursga kirish huquqini oladi.

Yagona resurslar ko‘rsatuvchisi (inglizcha.URL-Uniform Resourse locator)-bu veb-resursning yagona lokatori (joylashuvini aniqlovchisi)dir. URL 1990 yil Tim Bernes-li tomonidan Svetsariyaning Jenera shahridagi yadro tadqiqotlari bo‘yicha Evropa kengashi tashkilotida yaratilgan. URL internetda fundamental yangilik bo‘lib qoldi. Dastlab URL internetdagi resurslar (qo‘srimcha fayllar)ni joylashuvini belgilash uchun mo‘ljallangan.

Hozir URL internetda qariyb barcha resurslarini belgilash uchun qo‘laniladi. URL standarti RFC 1738 hujjatida qayd etilgan. Hozir URL terminini URI terminiga joy bo‘shatib bermoqda. Semantic o‘rgumchak to‘rining ko‘plab yangi texnologiyalari URI standarticha asoslanadi. Hozir URIning taraqqiy etishida asosiy rol jahon o‘rgimchak to’ri konsorsiumiga tegishli.

Interknet olamida hozirgi vaqtda 390 milliondan ortiq veb-serverlar faoliyat yuritmoqda. Ular ichida Apache kompaniyasining Apache Http –serveri va MSning IIS keng ommalashgan. Veb – serverlarning o’sish grafigi 1.5.1-rasmida tasvirlangan .

Apache HTTP-serverining paydo bo‘lishi internet tarmog’ining taraqqiyotining stumillashtirib turishi asosiy vosita hisoblanadi. Apache Netspage communications (hozirgi vaqtda SUN JAVA system veb server)

firmsining veb serveriga muqobil bepul birinchi veb server hisoblanadi. Dastur ko'plab platformalar: Unix, FreeBSD, Linux, Solaris, Novell Netware, MacOSX, MS windows va boshqalarda ishlaydi. Apache ochiq dastur kodi bilan bepul tarqatiladigan dasturiy ta'minot bo'lib, jahonning turli burchaklaridagi dastur tuzuvchilarning dasturni yaxshilash jarayonida qatnashishini va qo'shimcha ustkurma ishlab chiqaruvchilar va ular yordamida aniq bir maqsad uchun mo'ljallangan maxsus funksiyani bajarish imkonini beradi.

Loyiha mualliflari loyiha nomini tasodifan o'ylab topilmaganligini ta'kidlashadi. Buning ikkita sababi bor edi. Birinchi sababi shuki, Amerikaning mahhaliy aholisi Apache Hindu qabilasiga hurmat yuzasidan berilgan bo'lib, bu qabila vakillarining chidamliligi va jangovar san'ati butun dunyoga mashhur. Ikkinci sababi shuki, dastlab loyiha NCSA httpa mavjud veb –serveriga ko'p sonli seriali "natr" (yamoqlar sifatida ishlab chiqilgan).

Dasturning birinchi versiyasi 1994 yilda Robert Makkul tomonidan chiqarilgan. U chiqarilgandan so'ng, keyinchlik mashhur bo'lib ketgan Apache Group komandasi tashkil qiladi. Ikkinci versiyasi birinchisidan sezilarli farq qilardi. U 2002 yilda chiqarilgan. Modulli tuzilishga egaligi, dasturchilar uchun yangi API, IPv6 ni quvvatlashi va no Unix (masalan, windows) platformalarni quvvatlash yaxshilanganligini sababi internet tarmog'idagi eng ko'p ishlatiladigan httpd – serverga aylandi. Hozirgi vaqtida 2008 yil 19 yanvarda chiqarilgan 2.2.8 versiyasi so'ngi versiyasi hisoblanadi.

Apache veb-serveri yadroси modulli strukturaga ega bo'lib, dasturiy tuzuvchiga liyiha maqsadini aniqlagangan so'ng, o'zi ishlatish uchun rejalahshtirgan dastur vositalarini ishlatish bilan bir qatorda boshqarish o'chirib qo'yish mumkin. Yadroning bunday arxitekturasi dasturiy mahsulotni yanada havfsiz tez bajarilishi ta'minlaydi. Veb-server interpretatorlarning turli modullarini quvvatlaydi. masalan: perl, python, php, tcl va boshqalar. Bundan tashqari veb dasturchi xavfsizlik va kriptografiya modullaridan foydalanish mumkin. Apache ga aytenfikansiansiyani quvvatlash sozlangan ,SSL shifrlash

protokoli ishlangan ,proksi-modul va hisobot yaratuvchi modul mavjud. Bundan tashqari veb-serverning imkoniyatlariga og‘ir siqish tashqi moduli keladi.

Qulay konfigratsiya adminstratorga bir vaqtning o‘zida bir necha tugunlarga xizmat ko‘rsatish uchun bir nechta veb-esrverdan foydalanish imkoniyati administratorga qulaylik tug‘diradi. Hozirgi vaqtda Apache ishlab chiqaruvchilar uchun moljallangan turli yechimlar to‘plamiga kiradi. Mas,NovellNetWare da /BM WebSpher kabi odatdagি veb-server hisoblanadi. Server xususiy yechimlarni tashkil etish uchun Oracle va Borland dan foydalaniladi. Apache ni yana turli murakkablikdagi boshqa masalalarni hal etish uchun ham qo‘llaniladi. Masalan ,fayllar almashishishda . foydalanuvchi o‘zining shaxsiy kompyuterida dasturning nushasini o‘rnatadi. Hujjatlarni aniq bir papkaga joylashtirish orqali veb-server tomonidan yaratilgan sahifaga kirgan barcha foydalanuvchiga ochiq ko‘rinadigan qiladi.

